



Elov Dilshod Abdujabborovich,
*O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti,
iqtisodiyot fanlari nomzodi*

AYOLLAR ICHKI VA TASHQI MEHNAT MIGRATSIYASINING KELIB CHIQISH SABABLARI VA OMILLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ayollar tashqi va ichki mehnat migratsiyasi masalalari, ularni huquqiy tartibga solish xususiyatlari, O'zbekistonda aholi migratsiyasi holati, ayollar migratsiyasi sabablari va omillari, chet ellik ish beruvchilar va xorijiy kompaniyalar hamkorligi kabi masalalar ko'rib chiqilgan.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются вопросы внешней и внутренней трудовой миграции женщин, особенности их правового регулирования, состояние миграции населения в Узбекистане, причины и факторы миграции женщин, сотрудничество иностранных работодателей и иностранных компаний.*

Annotation. *This article examines the issues of women's external and internal labor migration, the features of their legal regulation, the state of population migration in Uzbekistan, the causes and factors of women's migration, cooperation between foreign employers and foreign companies.*

Tayanch so'zlar: *ayollar ichki mehnat migratsiyasi, ayollar tashqi mehnat migratsiyasi, xalqaro migratsiya, huquqiy tartibga solish, migratsiya siyosati, bandlik, migrant, xorijiy mehnat migrantlari, ayol migrantlar, gender.*

Ключевые слова: *внутренняя трудовая миграция женщин, внешняя трудовая миграция женщин, международная миграция, правовое регулирование, миграционная политика, трудоустройство, мигрант, иностранные трудовые мигранты, женщины-мигранты, пол.*

Keywords: *internal labor migration of women, external labor migration of women, international migration, legal regulation, migration policy, employment, migrant, foreign labor migrants, female migrants, gender.*

Kirish. Dunyoda aholi migratsiyasi ko‘lami va o‘sish darajasini kuzatib borar ekanmiz, har bir davlatning iqtisodiy, jug‘rofiy, demografik va boshqa omillar ta‘siriga ko‘ra migratsiya modellarining har xil ko‘rinishlari shakllanmoqda. Xalqaro migratsiya tashkilotining ma‘lumotlariga asosan 2021-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra xalqaro migrantlarning soni 281 millionga yetgan bo‘lib, bu dunyo aholisining 3,6 foizini tashkil etadi. Ularning, 164 milliondan ortig‘ini (60%) mehnat migrantlari, 130 millionini (48%) xotin-qizlar tashkil etadi¹. Qolaversa, Xalqaro migratsiya tashkilotining ko‘lami kengayib, oxirgi yigirma yillikda unga a‘zo davlatlarning soni 76 tadan 174 taga ko‘payganini² kuzatishimiz mumkin. Ushbu ko‘rsatkichlar kelib chiqib aytish mumkinki, dunyoda xavfsiz, tartibli va qonuniy migratsiyani ta‘minlashga oid muammolarni tadqiq etish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Mintaqaviy va global darajada sodir bo‘layotgan tarixiy o‘zgarishlar BMTga a‘zo davlatlar tomonidan migratsiya va ko‘chib o‘tishning xalqaro ko‘rinishlari to‘g‘risida ikkita yirik global bitim, ya‘ni Xavfsiz, tartibli va qonuniy migratsiya to‘g‘risidagi global bitim va Qochoqlar to‘g‘risidagi bitimni qayta ko‘rib chiqish jarayonida davlatlar, xalqaro tashkilotlar, fuqarolik jamiyati institutlari va xususiy sektor vakillarining migratsiyani tartibga solishni takomillashtirishga qaratilgan hamda ko‘p yillar davomida amalga oshirilayotgan ishlari qatorida migratsiya sohasida muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etuvchi migrantlarning jamiyatni rivojlantirishiga qo‘shgan hissasi, migrantlarning integratsiya va ijtimoiy birdamligi, migratsiya va salomatlik, bola va xavfsiz migratsiya, gender migratsiyasi, migratsiyaning atrof-muhit o‘zgarishlariga moslashuvi, migratsiyani global tartibga solishda o‘zgarishlarga oid tadqiqotlariga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini amalga oshirishga oid davlat dasturida “2030-yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasida xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni faollashtirish, Xalqaro migratsiya tashkiloti (XMT) bilan hamkorlikni kengaytirish, mehnat migrantlarini ijtimoiy himoya qilishda kafolatlangan tenglik mezonlariga erishish” kabi vazifalar belgilangan. Shuningdek, 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migratsiyasini ta‘minlash hamda samarali migratsiya siyosatini yuritish, “Vatandoshlar”

O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini amalga oshirishga oid davlat dasturida “2030-yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasida xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni faollashtirish, Xalqaro migratsiya tashkiloti (XMT) bilan hamkorlikni kengaytirish, mehnat migrantlarini ijtimoiy himoya qilishda kafolatlangan tenglik mezonlariga erishish” kabi vazifalar belgilangan.

¹ International migration 2020: report/ Department of Economic and Social Affairs Population Division/ United Nations. New York, – 2020. pp. 2-3, 10. www.un.org, www.un.org/development/desa/pd/#UNPPopulation

² IOM Members and Observers, as of April 2021. https://www.iom.int/sites/g/files/tmzbd1486/files/about-iom/members_observers_en.pdf

jamoat fondi orqali xorijiy davlatlardagi yurtdoshlarimiz bilan doimiy va samarali aloqalar o'rnatishga oid maqsadlar belgilangan.

Asosiy qism. O'tgan davr mobaynida migratsiya sohasida huquqiy baza shakllantirilib, xususan, O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi, Jinoyat kodeksi, "Aholi bandligi to'g'risida"gi, "Xususiy bandlik agentliklari to'g'risida"gi Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati tomonidan tasdiqlangan 2030-yilga qadar O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasining tashqi mehnat migratsiya tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3839-son, 2020-yil 15-sentabrdagi "Xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migratsiyasi tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4829-son, 2022-yil 1-martdagi "Xorijda vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini va ularning oila a'zolarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-149-son qarorlari migratsiyani huquqiy tartibga solishda nazariy-metodologik jihatdan yangicha yondashuvni, migratsiya sohasida davlat siyosatini shakllantirishda gender jihatlarini joriy etishga oid qonun hujjatlarini amaliyotga tatbiq etish mexanizmlarini yanada takomillashtirishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma'lumotiga ko'ra, 2010–2020-yillarda O'zbekistonga ko'chib kelgan va O'zbekistondan ko'chib ketgan aholi ichida erkaklardan ko'ra ayollar ulushi ko'payayotganini ko'rishimiz mumkin (1-jadval)³.

1-jadval

O'zbekistonda aholi migratsiyasi holati

Yil	Jami kishi		Foizda	
	ayollar	erkaklar	ayollar	erkaklar
Ko'chib kelganlar soni				
2010	85230	54545	61.0	39.1
2015	93567	45713	67.2	32.8
2020	115842	75244	60.6	39.4
Ko'chib ketganlar soni				
2010	108998	74860	59.3	40.7
2015	109940	58639	65.2	34.8
2020	121848	81781	59.8	40.2
Migratsion o'sish (kamayish)				
2010	-23768	-20315	53.9	46.1
2015	-16373	-12926	55.9	44.1
2020	-6006	-6537	47.9	52.1

³ Аҳоли миграцияси (киши) // <https://gender.stat.uz/uz/327-asosiy-ko-rsatkichlar/8734-demografiya> // <file:///C:/Users/DR/Desktop/777777/Aholi%20migratsiyasi.pdf>

Globalizatsiya davrida ayollar ichki va tashqi mehnat migratsiyasining asosiy sabablari ishsizlik va qisman ishsizlik, ijtimoiy yordam (xizmat) doirasining kamayishi yoki uni olish imkoniyatining pastligi, mehnatning avtomatlashuvi, kambag'allik, tengsizlik va ayollarga nisbatan har xil ko'rinishdagi zo'ravonlik hisoblanadi. Ko'pgina ayollar yakka tartibda mustaqil migrant sifatida oilaning yagona boquvchisiga aylanmoqda. Ayollar migratsiyasining modellari juda ko'p. Iqtisodiy tengsizlik, qabul qiluvchi va yuboruvchi davlatlarning migratsiya siyosati, mehnat bozori va ijtimoiy siyosat, oxirgi yillarda esa ekologik holat ham muhim rol o'ynamoqda.

Ko'pchilik ayol migrantlar past malakali ishlarda band bo'lsa-da, ularni "pastmalakali" deb hisoblash noo'rin. Ayol migrantlarning asosiy qismi kasbi va malakasiga mos kelmaydigan ish bilan band bo'lmoqda. Chunki ularning kasbi va malakasi mehnat bozorida kerakli darajada baholanmagan yoki tan olinmagan. Bu masala "malakaning yo'qotilishi" yoki "aqlni boy berish"ga olib keluvchi omil bo'lmoqda. Ayol migrantlarning mehnati arzon baholanishi mamlakatda mehnat bozorining gender tuzilishi natijasi hisoblanadi.

***Mehnat bozorining gender tuzilishi (gender asimmetriyasi)** – mehnat bozorida ikkita jins vakilining ijtimoiy va madaniy o'rni bir xil ko'rinishda bo'lmashligi, ya'ni ish joyi va uning turini birdek tanlash imkoniyati hamda ishhaqi ko'rsatkichlarining har xil bo'lishi hisoblanadi.*

Ayollar ichki mehnat migratsiyasi

O'zbekiston mehnat bozorida kasb va ishlar, asosan, ikkitaga ajratilgan: "ayollar uchun" va "erkaklar uchun". Bandlikning faqat ikkita yirik sohasida gender balansni kuzatishimiz mumkin: qishloq xo'jaligi, savdo-sotiq va umumiy ovqatlanish (erkaklar – 52%, ayollar – 54%). Mehnat bozorining boshqa sohalarda balansning yo'qolishi yaqqol ko'zga tashlanadi. Xususan, qurilish, transport, logistika, axborot va kommunikatsiya – erkaklar; ta'lim va sog'liqni saqlash – ayollar bandligi kuzatiladi. Muhimi shundaki, erkaklar band bo'lgan sohalarda ayollar band bo'lgan sohalarga nisbatan ishhaqi miqdorida ham katta farq mavjud. Demak, **birinchi omil** – mehnat bozorida kasb va ishlar jinsga qarab farqlanishi.

Bandlikning bunday tuzilishini mamlakatimizda ko'p yillardan buyon kuzatishimiz mumkin. Mamlakatda ishsizlik darajasi pandemiya davrida iqtisodiy faol aholiga nisbatan **10,2 foizni** tashkil qilgan bo'lsa, 2022-yilga kelib qariyb bir foizga kamaydi va **9,2 foizni** tashkil etdi.

Ayollar o'rtasida ishsizlik darajasi **12,8 foizga** qisqarganini ko'rishimiz mumkin. Bu ko'rsatkich 2020-yilda **14,1 foizni** tashkil qilgan⁴.

Ayollar ishsizligining o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, ular tomonidan ish qidirish norasmiy tarzda olib boriladi va tegishli ravishda norasmiy shaklda ish bilan band bo'lmoqda. *Buning sababi* ayollar ish qidirishga erkaklarga nisbatan ko'proq vaqtni sarflashiga to'g'ri keladi. Demak, **ikkinchi omil** – ishsizlik darajasi. **Uchinchi omil** – ayollarning norasmiy bandligi. Norasmiy bandlik oilaning byudjetiga katta hissa qo'shadi, biroq davlat tomonidan ijtimoiy himoya olish imkoniyati yo'q.

2019-yildan boshlab aholining ish bilan ta'minlanishi va yangi ish o'rinlari yaratilishini davlat buyurtmasi asosida amalga oshirish tizimi yo'lga qo'yildi. O'zini o'zi band qilgan fuqarolarga vaqtincha mehnat guvohnomalarini berish va ularning ish stajini qayd etish tartibi joriy etildi. Natijada norasmiy sektorda band bo'lgan xotin-qizlarning ulushi 27 foizga yetdi.

To'rtinchi omil – hududlarda ish (xizmat) haqi markazga nisbatan kamligi hayot tarzini yaxshilash uchun yetarli emas. Turarjoyini sotib olish va uni ta'mirlash, sog'liqni tiklash, shartnoma asosida o'qish pullarini to'lash, to'y marosimlarini o'tkazish kabi ijtimoiy-maishiy masalalarni hal qilish uchun oylik ishhaqidan tashqari qo'shimcha daromat manbayi kerak.

O'zbekiston sharoitida ayollarning ichki migratsiyasini o'rganish davomida aniqlandiki, ko'plab ayollar hududlardan markaz tomon savdo-sotiq va xizmat ko'rsatish sohaslarida ishlash uchun ko'chib kelmoqda. Shuningdek, mavsumiy ishlar, xususan, qishloq xo'jaligi sohasida bahorkuz mavsumlarida hududlar ichida qisqa muddatli ko'chib o'tish va qaytish migratsiyasi kuzatilmoqda.

*Respublikaning chekka hududlarini rivojlantirish, qishloqlarni obodonlashtirish, qishloqlarda yashovchi xotin-qizlarning iqtisodiy faolligini qo'llab-quvvatlash orqali kambag'allikni qisqartirishga ham alohida e'tibor qaratildi. Qishloq xo'jaligining turli sohaslarida **1,5 milliondan ortiq** xotin-qizlar mehnat qiladi.*

*Tadbirkorlik subyektlarining **20 foiziga**, shu jumladan, fermer xo'jaliklarining **7,3 foiziga** ayollar rahbarlik qiladi.*

⁴ Бандлик ва меҳнат муносабатлари вазири Нозим Хусановнинг “2022 йилда янги иш ўринларини ташкил этиш ва аҳоли бандлигига кўмаклашиш бўйича дастурларнинг ижроси юзасидан амалга оширилаётган ишлар тўғрисида”ги Олий Мажлис Қонунчилик палатасининг депутатларига ахбороти // www.parliament.gov.uz/uz/events/chamber/39068

Shu o'rinda, ish bilan band bo'lmagan aholini ishlab chiqarishga jalb etish, oila byudjeti daromadlarini ko'paytirish, uy mehnatidan foydalangan holda butlovchi qismlar, tayyor mahsulotlarning ayrim turlarini ishlab chiqarish va ba'zi bir xizmatlar ko'rsatishni tashkil etish orqali yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish faoliyati samaradorligini oshirish maqsadida kasanachilar ijtimoiy himoyasi va mehnati muhofazasini ta'minlashni inobatga olgan holda aholini uy mehnati faoliyatiga keng jalb qilish uchun qulay sharoit yaratildi⁵.

Mamlakatimizda 2006-yilda rasman joriy etilgan bandlikning bu turi ikkita jins vakiliga ham mo'ljallangan bo'lsa-da, uning bu turi, asosan, ayollarning ishsizligiga barham berishga qaratilgan.

Kasanachi ayollarning fikri:

“Ishda o'tirib ishlash va uy ishlari hamda bola parvarishini bir vaqtda bajarish imkoniyati biz uchun qulay va daromatli”.

“Uy ishlari va bola tarbiyasidan ajralmagan holda sanoatning rivojlanishiga hissa qo'shish va oila byudjetiga qo'shimcha daromat olib kirish – biz uchun juda qulay”.

Bandlikning mazkur turi shunisi bilan qulayki, korxonalar bilan mehnat shartnomasi tuzgan kasanachilar band aholi toifasiga kiradi va ularga mehnat daftarchasi beriladi, pensiyalar va ijtimoiy sug'urta bo'yicha nafaqalar tayinlashda ishlagan vaqti mehnat stajiga qo'shiladi. Shuningdek, kasanachilik mehnati amalga oshirilayotgan turarjoylarni qurish uchun mo'ljallanmagan joylar toifasiga o'tkazish talab etilmaydi. Qolaversa, mehnat shartnomasida ishlarni bajarish uchun zarur uskunalar yetkazib berish va ularga texnik xizmat ko'rsatish tizimini tashkil etish, asboblari, jihozlar, materiallar va yarimfabrikatlar bilan ta'minlash, kasanachilarni majburiy tarzda texnika xavfsizligiga o'qitish hamda buyurtmachi talab qilgan sifat standartlari asosida ishlab chiqarilgan mahsulotlarni tashib ketish, bajarilgan ish uchun hisob-kitob qilish bo'yicha korxonalarning kasanachilar oldidagi kafolat va majburiyatlari ko'zda tutiladi.

Mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarni izchil davom ettirish, mahallalarda sanoat, hunarmandchilik, kasanachilik va chorvachilik faoliyatini amalga oshirayotgan fuqarolarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning faoliyat yuritish sharoitlarini yaxshilash,

⁵ Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Йирик sanoat korxonalari bilan kasanachilikni rivojlantirish asosidagi ishlab chiqarish va xizmatlar urtasida kooperatsiya kengaytirishni rag'batlantirish chora-tadbirlari tug'risida”gi 2006 yil 5 yanvardagi ПФ-3706-сон Фармони // <http://lex.uz/docs/965110>

avvalambor, **ishsizlik darajasi yuqori bo'lgan mahallalarda** zamonaviy ishlab chiqarish quvvatlarining ishga tushirilishini jadallashtirish va bu asosida doimiy ish joylari tashkil etilishini ta'minlash, aholi daromadlarini oshirish maqsadida mahallalarda sanoat, hunarmandchilik, kasanachilik va chorvachilik yo'nalishlarida mikromarkazlar tashkil etilgan. **421 ta** mahallani o'z ichiga biriktirgan mikromarkazlarda sanoat, hunarmandchilik, kasanachilik faoliyat yo'nalishlari bo'yicha kamida **10 ta ish o'rnini** yaratish va ta'minlab borish vazifa etib belgilangan⁶.

Bugungi kunda dunyoda millionlab ayollar "uy ishi" bilan band va bir kunda o'rtacha 14 soat davomida shunga vaqtini sarflaydi hamda mehnat haqi olmaydi. Xalqaro ekspertlar ayollarning pul to'lanmaydigan mehnati dunyo iqtisodiyotiga 10,8 trillion dollar hissasini qo'shadi. Ular "iqtisodiy tengsizlik bilan kurash va iqtisodiyot ayollar uchun xizmat qilish zarur"ligini ta'kidlamogda⁷.

Shu o'rinda gender va iqtisodiy tengsizlikga qarshi kurashishda **"gender byudjetlashtirish"** tizimi muhim o'rinni egallaydi

***Gender byudjetlashtirish** ayollarning huquq va erkinliklarini kengaytirish va jamiyatda tengsizlikni qisqartirish vositasi hisoblanadi.*

Mazkur mexanizmni joriy etgan xorijiy davlatlarning tajribasi shuni ko'rsatadiki, "BMT – ayollar" tuzilmasi yordamida gender-sezuvchanlik byudjetlashtirish, avvalo, ijtimoiy va sog'liqni saqlash sohalarida, shuningdek, xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonlikka qarshi kurashish hamda "uy ishi" sohasida amalga oshirilgani aniqlandi.

Ayollar tashqi mehnat migratsiyasi.

Tashqi mehnat migratsiyasi agentligining ma'lumotlariga ko'ra, bugungi kunda **2,5 millionga** yaqin fuqarolarimiz chel el davlatlarida mehnat migranti sifatida faoliyat yuritmoqda. Shulardan **600 000 nafarini** ayollar tashkil qiladi.

*2022-yilning 9 oyida **27,2 ming nafar** fuqaro xorijga xavfsiz, manzilli va tashkillashtirilgan tarzda ishga yuborildi, shundan **472 nafari** xotin-qizlarni tashkil etadi.*

Hududlar kesimida Samarqand va Toshkent viloyatlari, Toshkent shahar hamda vodiy hududlari ayol-mehnat migrantlarni yetkazib

⁶ Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Маҳаллаларда саноат, хунармандчилик, касаначилик ва чорвачилик микромарказларини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида"ги 2022 йил 25 июлдаги ПҚ-331-сон қарори // <http://lex.uz/docs/6129618>

⁷ <https://www.oxfam.org/en/why-majority-worlds-poor-are-women>

beruvchilar hisoblanadi. Bitta Samarqand viloyatidan 90 000 nafar dan ortiq ayol mehnat migranti sifatida xorijga chiqib ketgan.

O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini tanlash, tayyorlash, moslashtirish tadbirlarini o‘tkazish va xorijda ishga joylashtirish jarayonlarini samarali boshqarish hamda nazorat qilish orqali ularga xorijda mehnat faoliyatini olib borishga doir huquqlarini amalga oshirishda ko‘maklashish Tashqi mehnat migratsiyasi agentligining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Vakolatli tashkilot tomonidan Facebook ijtimoiy tarmog‘ida ayollarning tashqi mehnat migratsiyasi masalasida o‘tkazilgan so‘rovnomasida “Siz nima uchun xorijga ishlash uchun ketgansiz?”, “O‘zbekistonga qaytasizmi?” savollariga ko‘plab respondentlarning Vataniga qaytish istagi borligi, farzandlarini qarindoshlar qaramog‘iga qoldirgani va buning uchun katta iztirobda ekanliklarini ta’kidlamog‘da.

“Men tibbiyot oliygohini tugatganman. Hozirda Turkiyada mutaxassisligim bo‘yicha ishlayamayapman. Bir oila xizmatidaman. Vazifam uy bekasini avtoullovda olib yurish va unga ofis ishlarida ko‘maklashishdan iborat. Meni shu yerlarda va shu ish bilan shug‘ullanishimga hech kim majburlamadi. Bitta farzandim bor va u onam qaramog‘ida. O‘zbekistonda farmatsevtika kompaniyasida ishlaganman. Turkiyada shu ishimga uch baravar ko‘p pul to‘lashadi. O‘zbekistonga qaytganimda tibbiyot sohasida ishlayman”.

“Men Rossiya Federatsiyasida va Turkiyada oddiy xizmatkor bo‘lib ishlaganman. Yagona maqsadim – uy-joy sotib olish. Yolg‘iz o‘g‘lim ota-onam qaramog‘ida. 8 yil mobaynida borib-kelib yurib ishlaganman. O‘zbekistonga har 10-11 oyda kelib turardim. Imkoniyatimiz bo‘lganida ishlashga emas, to‘liq ko‘chib ketishga ketardim”.

“Janubiy Koreyada ishlaganman. Turmushim buzilganidan so‘ng ikkita farzandim bilan ko‘chada boshpanasiz qoldim. Mehnat qilib topganim faqat ovqatlanishimiz uchun yetardi. Janubiy Koreyaga ketishga imkoniyati paydo bo‘ldi. Ungacha 8 oy davomida koreys tilini o‘rganganman. Boshida kemalarni bo‘yash ishi bilan shug‘ullandim. Ishlagan paytimda bolalarim onamning qaramog‘ida bo‘ldi va ularni yiliga bir marta kelib ko‘rib ketish imkoniyati bo‘lgan”.

Shu o‘rinda tashqi mehnat migratsiyasiga ayollarni tayyorlash va undan qaytganidan so‘ng moslashtirish mexanizmlari qay darajada amalga oshirilayotgani muhim masaladir.

O‘zbekistonda xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migratsiyasi tizimi asosida quyidagi yo‘nalishlarda ishlar tashkillashtirilgan bo‘lib, ular, **Birinchidan, vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun xorijga chiqib ketayotgan shaxslarni kasbga va chet tillariga o‘qitish bo‘yicha:**

xorijga ishlash uchun ketmoqchi bo‘lgan fuqarolarni kasbga va chet tillariga o‘qitish bo‘yicha Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi tizimida **17 ta** “Ishga marhamat” monomarkazi hamda **59 ta** kasb-hunarga o‘qitish markazi faoliyati yo‘lga qo‘yildi;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlarda **26 ta** o‘rta maxsus o‘quv yurtlari bazasida qisqa muddatli kasb-hunarga va chet tillariga o‘qitish kurslari tashkil etildi.

“Ishga marhamat” monomarkazlariga 11 726 nafar, kasbga o‘qitish markazlariga 17 319 nafar, qurilish sohasi mutaxassislarini tayyorlash markazlarida 4568 nafar, boshqa vazirlik va idoralar ta’lim muassasalariga 4025 nafar, qisqa muddatli kurslarga 917 nafar, kasbga o‘qitish maskanlariga 562 nafar hamda nodavlat ta’lim muassasalariga 1911 nafar fuqaro jalb qilingan bo‘lib, ularning 19 574 nafari o‘qish jarayonini yakunlagan.

Birinchidan, ushbu jarayonda chet ellik ish beruvchilar va xorijiy kompaniyalar bilan hamkorlikda tashkil etilgan kasb-hunar va chet tillariga o‘qitish markazlari xizmati beqiyos bo‘ldi. Xususan,

Shveysariyaning “Globogate Recruiting GmbH” tashkiloti bilan Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi o‘rtasida imzolangan hamkorlik shartnomasiga asosan O‘zbekiston fuqarolarini **Germaniya va Yevropa** mamlakatlariga vaqtinchalik mehnat faoliyatiga jalb qilish bo‘yicha 10 oylik dastur asosida **loyihalar amalga oshirilmoqda;**

Germaniyaning “Nova Agency” va “OPASCA GmbH” tashkiloti bilan imzolangan hamkorlik shartnomalariga muvofiq, Toshkent, Andijon, Buxoro, Samarqand va Urganch shaharlarida O‘zbekiston fuqarolarini 10 oylik dastur asosida nemis tiliga o‘qitish va Germaniyaga ishga jalb qilish bo‘yicha kelishuvga erishilgan;

Yaponiyaning “Nippon Educational Academy” kompaniyasi bilan hamkorlikda tashkil etilgan **“Yapon tili va kasbiy malaka”** test markazi hamda **“Yume”** o‘quv markaziga O‘zbekiston fuqarolari yapon tili, qariyalarni parvarishlash va qishloq xo‘jaligi sohalari bo‘yicha o‘quv kurslariga jalb qilingan;

Rossiya Federatsiyasining 11 ta subyektida ushbu davlatda vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan O‘zbekiston fuqarolari uchun Xalqlar do‘stligi universiteti hamda **“WorldSkills Russia”** ittifoqi bilan hamkorlikda **rus tiliga va kasb-hunarga o‘qitish kurslari** tashkil etilgan.

Ikkinchidan, fuqarolarni tashkillashtirilgan holda vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirish. Xususan, 2021–2022-yillarda O‘zbekistondan ishchi kuchini jalb qilish bo‘yicha **14 ta** (RF, Latviya, Polsha, Yaponiya, Bolgariya, Germaniya, Finlyandiya, Litva, Kanada, Serbiya, Buyuk Britaniya, Xorvatiya, Chexiya va Qozog‘iston) xorijiy davlatning **77 ta** ish beruvchi va rekruting agentliklari bilan shartnomalar tuzilgan.

Uchinchidan, mehnat migrantlarining huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish. Mazkur yo‘nalishdagi ishlar O‘zbekistonning xorijdagi

diplomatik muassasalari, Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi va uning xorijdagi vakolatxonalari tomonidan olib boriladi.

2022-yilning 9 oyida 207 000 nafar yurtdoshimizga huquqiy, moddiy va ijtimoiy yordamlar ko'rsatilgan. Shundan, xotin-qizlarga ko'rsatilgan yordamlar:

112 nafar "birgamiz.com" elektron platformasi orqali murojaat qilgan fuqaroga 6,1 ming AQSh dollari miqdorida bir martalik moddiy yordam (BHM 2 baravari) berilgan;

679 nafar xotin-qizga huquqiy, **1,7 ming nafariga** ijtimoiy yordamlar ko'rsatilgan;

20,5 ming nafar mehnat migrantiga diplomatik vakolatxonalari, Tashqi mehnat migratsiyasi agentligining "Call-markazi", filiallari va vakolatxonalari tomonidan axborot va maslahat xizmatlari ko'rsatilgan.

To'rtinchidan, O'zbekistonga qaytib kelgan mehnat migrantlarini ijtimoiy-iqtisodiy qo'llab-quvvatlash. Xususan, 2022-yili 100 000 dan ortiq ayol mehnat migrantlari vatanga qaytib kelgan bo'lib, **mehnat organlari yordamida** ularga bandlik xizmatlari ko'rsatilgan. **Bandlik xizmatlari** doimiy va vaqtinchalik ish o'rinlariga joylashtirish, tadbirkorlikka jalb qilish va kredit ajratishga ko'maklashish, subsidiya ajratish, kasb-hunarga o'qitish va qayta tayyorlash kabilarni o'z ichiga oladi.

Shuningdek, Savdo-sanoat palatasi bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan **"Tadbirkor mehnat migranti"** loyihasi doirasida xorijdan qaytib kelgan fuqarolarga **tadbirkorlik va moliyaviy savodxonlikka** o'qitilmoqda hamda **sertifikatlar** berilmoqda.

O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi va O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining 2022-yil 31-martda "Xorijda vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari va ularning oila a'zolarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qo'shma qarori tasdiqlangan. Unga ko'ra, O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyalari mablag'lari hisobidan mehnat migrantlarining oilalariga moddiy yordam va yo'llanmalar berilishi nazarda tutilgan.

Xulosa. O'zbekistonda migratsiyani tartibga solish, xususan, qonuniy va tartibli mehnat migratsiyani tashkillashtirish, xorijdan qaytib kelgan mehnat migrantlarini reintegratsiya qilish, shuningdek, ushbu sohada xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, xorijdagi vatandoshlar bilan hamkorlikni ta'minlash yo'nalishlarida huquqiy asoslar yaratilmoqda.

Migratsiya jarayoni son jihatdan dinamik xususiyatga ega bo'lish bilan bir qatorda, uning sifat ko'rsatkichi, ya'ni tarkibi o'zgaruvchidir. So'nggi yillarda migratsiya jarayonida xotin-qizlarning ulushi ko'payotganini kuzatishimiz mumkin. Ayol migrantlarning mehnati ko'pgina sohalarda, asosan, xizmat ko'rsatish bilan bog'liq ishlarni bajarishda keng qo'llanmoqda va bunga ehtiyoj oshib bormoqda.

Shu bois ilgari xalqaro migratsiya sahnasida ayollar o'z o'rniga ega bo'lmagan, erkak migrantning oila a'zosi sifatida olib qaralgan bo'lsa, hozirda ularni mehnat migrantlarning mustaqil guruhi sifatida ularga nisbatan "unattached migrants", ya'ni "biriktirilmagan" maxsus atama qo'llanmoqda.

Shuningdek, migratsiya sohasidagi tadqiqotlar uni mukammal va qarama-qarshiliklari mavjud jarayon sifatida tan oladi. Ayol migrantlarga nisbatan ko'pgina kamsitish, muammolar va noqulay sharoitlar bo'lishi bilan birga, ularning aksariyat qismi migratsiyani o'zining yashash sharoitini yaxshilash, iqtisodiy mustaqillik va shaxsiy o'sish uchun imkoniyatlar eshigi deb biladi. Migratsiya gender tengsizlik bilan kurashish, gender o'randan voz kechish va gender qoliplarni sindirish hamda ijobiy ijtimoiy o'zgarishlarga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. *International migration 2020: report/ Department of Economic and Social Affairs Population Division/ United Nations. New york, – 2020. pp. 2-3, 10. www.un.org, www.un.org/development/desa/pd/#UNPPopulation*
2. *IOM Members and Observers, as of April 2021. https://www.iom.int/sites/g/files/tmzbd1486/files/about-iom/memebers_observers_en.pdf*
3. *Аҳоли миграцияси (киши) // <https://gender.stat.uz/uz/327-asosiy-ko-rsatkichlar/8734-demografiya> // <file:///C:/Users/DR/Desktop/777777/Aholi%20migratsiyasi.pdf>.*
4. *Бандлик ва меҳнат муносабатлари вазири Нозим Хусановнинг “2022 йилда янги иш ўринларини таъкил этиши ва аҳоли бандлигига қўмаклашиши бўйича дастурларнинг ижроси юзасидан амалга оширилаётган ишлар тўғрисида”ги Олий Мажлис Қонунчилик палатасининг депутатларига ахбороти // www.parliament.gov.uz/uz/events/chamber/39068*
5. *Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Йирик саноат корхоналари билан касаначиликни ривожлантириши асосидаги ишлаб чиқариши ва хизматлар ўртасида кооперацияни кенгайтиришни рағбатлантириши чора-тадбирлари тўғрисида”ги 2006 йил 5 январдаги ПФ-3706-сон Фармони // <http://lex.uz/docs/965110>*
6. *Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Маҳаллаларда саноат, ҳунармандчилик, касаначилик ва чорвачилик микромарказларини таъкил этиши чора-тадбирлари тўғрисида”ги 2022 йил 25 июлдаги ПҚ-331-сон қарори // <http://lex.uz/docs/6129618>*
7. *<https://www.oxfam.org/en/why-majority-worlds-poor-are-women>*